

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




2021- yil yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiati, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 587,9** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **665,4** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,3 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)

665,4
mlrd. so'mga

Hajmning o'sishi

4 587,9
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

105,3 %

O'sish sur'ati




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning mart oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **12,6** mlrd. so'mga o'sdi va **1 580,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 36,6 mlrd. so'mga kamaygan va 1 324,2 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2021- yilning fevral oyiga nisbatan joriy yilning mart oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **141,0** mlrd. so'mga o'sdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning fevral oyiga nisbatan 2020- yilning mart oyida xizmatlar hajmi **86,7** mlrd. so'mga o'sgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	4 587,9	105,3
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	137,2	132,7
Moliyaviy xizmatlar	584,1	101,1
Transport xizmatlari	1 018,6	101,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	968,4	100,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	177,0	100,6
Savdo xizmatlari	1 568,2	105,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	158,0	109,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	171,1	94,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	101,7	126,3
Ijara xizmatlari	143,1	108,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	93,7	102,1
Shaxsiy xizmatlar	126,9	102,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	165,3	153,1
Boshqa xizmatlar	143,0	97,6

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **34,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **2,0 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **33,6 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,8 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-mart oylarida yuqori o'sish me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**53,1 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**26,3 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**9,8 %**), ijara xizmatlari (**8,3 %**), shuningdek, savdo xizmatlarida (**5,1 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining keskin pasayishi ta'lim sohasidagi xizmatlar (**5,5 %**) sohasida qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **139,1 %**.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda biroz o'sish kuzatilgan – **0,1 %**.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da




◆ 2020-y. yanvar-mart ● 2021-y. yanvar-mart



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, mln.da




2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining hajmi **168,6** mln. yo'lovchiga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining hajmi **165,9** mln. yo'lovchi ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Umumiy avtomobil transporti xizmatlari hajmida hududlarning ulushi, % da (2021- yil yanvar-mart oylarida)



2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **968,4** mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmi **0,2** % ga oshdi.


2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Qibray (**8,8 %**), Bo'stonliq (**7,6 %**), Zangiota (**7,5 %**) tumanlari va Olmaliq (**8,6 %**), Chirchiq (**7,3 %**), Angren (**6,4 %**) shaharlariga to'g'ri keldi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulushi Nurafshon shahrida qayd etildi (**1,2 %**).

Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da (2021- yil yanvar-mart oylarida)



2021- yil yanvar-mart oylarida avtotransport xizmatlarining yuqori o'sishiga Angren (**2,2 %**), Ohangaron (**1,8 %**) shaharlarida, shuningdek, Qibray tumanida (**1,2 %**) erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining keskin pasayish Bo'stonliq (**89,6 %**) va Yangiyo'l (**86,5 %**) tumanlarida qayd etildi.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **34,2** % ni tashkil etib, bu esa **1 568,2** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **1 317,0** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **33,6** % iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

1 317,0

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

1 568,2

102,5

O'sish sur'ati, % da

105,1

2020- y. yanvar-mart




2021- y. yanvar-mart

2021- yil yanvar-mart


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **65,7 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar-mart oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **65,3 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-mart oylarida)

2021- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **584,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **555,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **12,7** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **14,2** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **28,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **1,1** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning o'sish sur'ati **139,1** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,6 %** ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,9 %** ni tashkil etadi.

2021- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,5 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-mart oylarida)



**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **88,6 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **9,6 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,8 %**.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-mart oylarida)

2021- yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **137,2** mlrd. so'm darajasida belgilandi.


2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **132,7** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ushbu xizmat turi hajmi **101,8** mlrd. so'm

yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **2,6** % iga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **123,4** % ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **91,7 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2020- y.
yanvar-mart**



**2021- y.
yanvar-mart**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **91,4 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish – uzluksiz **ta'lim tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **171,1** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,7 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **94,5 %** ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi **171,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan esa o'sish **28,2 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-mart


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **27,2** mlrd. so'mga ortdi.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-mart

85,5 %

14,5 %



14,6 %

85,4 %

2020- y. yanvar-mart



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **85,5 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **85,4 %** ni tashkil etgan.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.

yanvar-mart

2021- y.

**70,3
mlrd. so'm**

**Xizmatlar
hajmi**

**101,7
mlrd. so'm**

104,0 %

**O'sish
sur'ati**

126,3 %

1,8 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

2,2 %




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-mart oylarida)



2021- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **9,7 %** (2020- yil yanvar-mart oylarida – **9,7 %**) ni Qibray tumani tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Ohangaron tumanida – **1,4 %** (2020- yil yanvar-mart oylarida – **1,4 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Toshkent viloyati *)	4 587,9	105,3	108,5
<i>shaharlar :</i>			
Nurafshon	244,7	105,8	125,2
Olmaliq	313,5	105,6	103,5
Angren	288,8	104,0	101,7
Bekobod	211,1	105,2	103,0
Ohangaron	91,0	104,7	103,8
Chirchiq	425,1	103,4	111,7
Yangiyo'l	213,6	104,9	104,2
<i>tumanlar :</i>			
Oqqo'rg'on	116,0	104,1	101,7
Ohangaron	65,9	104,9	105,0
Bekobod	127,2	103,1	103,2
Bo'stonliq	274,7	107,2	110,5
Bo'ka	121,9	103,7	104,2
Quyi Chirchiq	86,0	104,8	104,1

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Zangiota	441,9	108,4	104,2
Yuqori Chirchiq	151,2	105,8	107,2
Qibray	445,4	105,3	103,9
Parkent	174,1	107,4	107,3
Piskent	67,9	105,2	103,3
O'rta Chirchiq	141,9	104,3	100,3
Chinoz	127,8	104,0	101,0
Yangiyo'l	223,5	104,2	101,9
Toshkent	234,7	105,1	104,8

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

1 539,0
ming so'm

Hajmning o'sishi

207,8
ming so'mga

2021- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 539,0** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,0** % ni tashkil etdi.



104,0 %

O'sish sur'ati

Taqqoslash uchun:
2020- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 331,2** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- aprel holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

29 441 birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

4 561 birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

118,3 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi


62,0 %

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **62,0 %**, sanoat **18,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,7 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **7,7 %** ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,6 %** ni, sanoat **19,6 %** ni, qurilish **7,8 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,0 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (**44,9 %**) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **12,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **5,6 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,7 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **69,6 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining hisssasi **57, %** ga to'g'ri keldi.

